

## **Amir Temurning mamlakat obodonchiligi borasidagi faoliyati haqida**

**S.F. Furqatov, O‘zMU Jizzax filiali II bosqich talabasi**  
**Ilmiy rahbar: A.K. Toshboev, O‘z O‘zMU Jizzax filiali o‘qituvchisi**

Amir Temur bobomizning hayoti va faoliyati Markaziy Osiyo halqlarining tarixida shu qadar o‘lkan tarixiy ahamiyatga molik bo‘ldiki, mana bir necha asrdiki, dunyo olimlari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davri turli fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilayapti. Amir Temur Movaraunnahrni dunyoning eng obod o‘lkalaridan biriga aylantirishni, Samarqandni esa butun hududning ichki va tashqi savdosini boshqarib turuvchi markaz sifatida ko‘rishni xoxlar edi.<sup>1</sup> Olib borilgan oqilona siyosat tufayli, Samarqandning ichki va tashqi savdodagi o‘rni keskin oshib, hunarmandchilikning yangi sohalari ravnaq topa boshladi.

Mamlakatning asosiy aholisini tashkil etuvchi qishloq ahli, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida tovar ayirboshlash kuchaydi. Samarqand esa, muvofiqlashtirib turuvchi markaz rolini bajara boshladi. U qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bozor bilan bog‘lab turdi, qishloq mehnatkashlarini qo‘shimcha xom ashyo, nimmahsulot va ba‘zi hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘plab ishlab chiqarishga rag‘batlantirib, ular xo‘jaligining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan Ispan echisi Rui Gonsales de Klavixoni kundaliklarida Movaraunnahrning chorva mahsulotlari (go‘sh) ga juda boyligi, mehmonlarning oldiga uni ayamadan qo‘yishi ta’kidlanib, “Bu yerda otlar chidamliligi bilan juda dovuqlidir”<sup>2</sup> deb, ta’rif beriladi. R.G. Klavixo o‘z esdaliklarini yozishda davom etib, Movaraunnahrda chorva va chorvachilik mahsulotlarining to‘kin-sochin bo‘lganligini “... Borida go‘shni haddan ortiq iste’mol qiladi... Yig‘ilgan go‘sh uyumi qanchalik katta bo‘lmasin, shu ondayoq yeb tugallanardi. Go‘shxo‘rlik tamom bo‘lgach, xontaxtalar keltirildi. ... To‘yga odamlar uzluksiz kelib turar, go‘sh ham to‘xtovsiz keltirilardi....”<sup>3</sup> kabi jumlar bilan ta’riflaydi. Bu kabi to‘kinlik o‘troq qishloq ahli va dehqonchilik mahsulotlari uchun ham ta’lluqli hisoblanadi.

Bu borada Samarqand yaqinida Amir Temur buyrug‘i bilan bunyod etilgan qishloqlar ancha uzoqda joylashgan va natural xo‘jalik saklanib qolgan qishlokdardan tubdan farq qilar edi. Mashxur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o‘zining «Zafarnoma» asarida shunday yozadi: «... uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dexli va Kanboyit atrofigacha, Bobildan to Misr va Rum xududigacha bo‘lgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalaru, beva xotinlar xam ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Xech bir kimsa ularning bir doniga xam ko‘z olaytira olmaydi va

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2011.. B.15.

<sup>2</sup> Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent, 2010. B. 146, 158-159.

<sup>3</sup> Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent, 2010. B. 185.

bir dirxamiga xam ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marxamatlar Amir soxibqironning siyosati va adolati natijasidir».<sup>4</sup>

Amir Temur o'z hukmdorligining ilk davrida Kesh shaxrini mamlakat poytaxtiga aylantirish niyatida uning obodonligiga katta ahamiyat berdi. Bu yerda dunyoga dong'i ketgan Oqsaroy qad ko'tardi. Bu muhtasham saroyning peshtoqi, toqu ravoqlari, devorlari zangori va oltin rang arabiy naqshli koshinlar, guldor o'ymakor parchinlar bilan ziynatlandi. Sohibqiron Keshni Markaziy Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbatul ilm val adab», ya'ni «Ilm va adab (tarbiya)ning gumbazi» degan unvonga ega bo'ldi. Ammo Zahiriddin Bobur ta'riflaganidek, «... Chun Keshning qobiliyati shahar bo'larga Samarqandcha emas edi, oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni ixtiyor qildi».

Samarqand nafaqat o'zining obodligi, boyligi va go'zalligi bilan, bal-ki yuksak darajada rivojlangan ilm-fani, san'at va madaniyati bilan ham dong taratdi. Chunki Sohibqiron bu muazzam shaharga turli yurtlardan iqtidorli olimlar, me'morlar va musavvirlar, boshqa iste'dodli mutaxassislarni yiqqan edi. O'sha davrning eng katta ilmiy kashfiyotlari, falsafiy g'oyalari, me'morchilik, tasviriy san'at va boshqa sohalardagi ulug'vor yutuqlar Samarqandda tug'ilar, ulg'ayar, so'ngra Amir Temur davlatining turli chekkalariga tarqalar edi, ya'ni poytaxt Samarkand o'ziga xos ijodiy laboratoriyaga aylangan edi. Bu borada ayniqsa me'morlar juda ilgarilab ketgan edilar.<sup>5</sup>

Samarkandda Amir Temur davrida qurilgan har bir me'morchilik obidasi, poydevoridan tortib to gumbazining uchigacha, koshinlaridan tortib g'ishtlarigacha yagona, tugal va mukammal go'zal qiyofaga ega edi. Shuningdek, bu davrda qurilgan ko'pgina saroylarning devorlariga keng ko'lamda monumental rangtasvirlar ham ishlangan edi. Ularda Amir Temurning Hindiston, Eron va Dashti. Qipchoqqa qilgan zafarli yurishlari, Amir Temurning elchilarni qabul qilish marosimlari, olimu ulamo bilan suhbatlari, to'y va bazm sahnalari o'ta mohirlik bilan jonli aks ettirilgan edi.<sup>6</sup> Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo Amir Temur olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan edi.

Amir Temurning bog'lari haqidagi ma'lumotlar yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. O'sha davr bog'larining me'moriy qiyofasi xususidagi umumiy tushunchalarni Rui Gonsales de Klavixo, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshox va Zahiriddin Bobur asarlaridan topish mumkin. Samarqandda Amir Temur farmoyishi bilan qurilgan yirik me'moriy obidalar orasida shahar Jome masjidining bino qilinishi ayniqsa diqqatga sazovordir. 1399 yil may oyida boshlangan, shahzodalar va amirlar boshchilik qilgan bu qurilishga me'moru binokorlar va naqqoshu ganchkorlar bilan bir qatorda yuzlab sangbur (tosh qazuvchi) va sangtarosh (tosh yo'nuvchi)lar jalb etilgan. Binoning poydevori xoro (granit) toshlardan ishlanib, to'rt burchagida to'rtta baland minora tiklandi. Balandligi 7 metrli 480 ta marmar ustunli masjid sahniga taroshlangan tosh taxtachalar to'shaldi. Masjid aylana devorining ichki tomoni va toqdari yuzasi

<sup>4</sup> Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent, 1996. B. 78.

<sup>5</sup> Boboev H. Amir Temur va uning qarashlari. Toshkent, 1992.B.66.

<sup>6</sup> Fayziev T. Temuriy malikalar. Toshkent, 1994. B. 16.

Qur'oni karimning oyatlaridagi kalimalaridan toshga o'yilgan kitoba yozuvlar bilan ziynatlandi.<sup>7</sup>

Bu bog'larning tarhi, haqiqatan ham, aql-idrok bilan tuzilgan, ularni bunyod etishda iste'dodli me'morlar qatnashgan. Tarix ulardan ayrimlarining nomini bizgacha yetkazgan. Shulardan biri Shahobiddin Ahmad Zardakashiy bo'lib, Amir Temur davridagi aksariyat bog'larning ijodkoridir. Bog' me'morlaridan yana biri Sulton Mahmud. Bu me'mor Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarda Xirotda ko'plab bog'lar bunyod etgan. Bular Samarqand bog'lariga monand yaratilgan.

Klavixo shaharning sharq tomonidagi «Bog'i Dilkusho» haqida gapirar ekan, bunday deb yozadi: «Sohibqiron bog'iga baland va salobatli darvozalardan kiriladi, ular g'ishtdan ko'tarilgan bo'lib, chinni koshinlar bilan bezatilgan, zangori koshinlarga oltin suvi yugurtirilgan». Burchaklardagi minoralar boqqa ko'rk bag'ishlab turar edi. Bog' o'rtasidan keng xiyobon o'tar edi.<sup>8</sup>

Xiyobondan yurib borilsa, uch kavatli ko'shk yoki saroy ro'baro' bo'ladi. Uning atrofiga chinor va tut ekilgan. Bog'ning yuqori qismida hovuzlar bo'lgan. Ko'shk devorlariga koshin qoplangan. Shifti naqsh bilan bezatilgan. Zahiriddin Bobur devorlarda Amir Temurning Hindistonga safari manzaralari tushirilgan suratlar borligi ni eslab o'tadi. Bog'da katta saroy bilan bir qatorda juda ko'p ko'shk va ayvonlar bo'lgan, ular kurkam bezatilgan, osti qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan. Bularni Klavixo o'z esdaliklarida juda batafsil ta'riflab bergan.

Daraxtlar qat'iy tartibda ekilgan: soya tashlab turadigan daraxtlar bilan bir qatorda mevali daraxtlar ham ko'p ekilgan. Uzumzorlar ko'p bo'lgan. Samarqandliklar o'z ajdodlarining uzumzorlarini ehtimol bilan parvarish qilishgan. Erta bahordan kech kuzgacha gulzorlar yashnab turgan.

Ariklardan suv mavj urib oqib turgan, buloklardan suv toshib chiqqan. Hovuzlar, havzalar suvga to'lib turgan, shuning uchun ham atrof salqin va xushabot bo'lgan. Bu yerga kelgan har qanday odam saraton jazirasini unutgan, ba'zi bog'larda, xususan, «Bog'i Nav»da favvoralar bo'lgan.

Manbalarda keltirilishicha, shaharning sharq tomonidagi Bog'i Dilkushoning tashqi hovlisida podshoh saroyi bo'lib, unda qurollangan askarlar turgan, ichki hovlida esa tug'lar bilan bezatilgan olti jangovar fil safga tizilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning mehmon qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo'lgan. Bu hovlilarning tashqarisidagi girdiga olma va chinor o'tkazilgan, hovzlarning favvorasida qizil va sariq olmalar qalqib o'ynab turgan.

Bu obodonchilikning barchasi Samarqandning nafaqat siyosiy balki. Iqtisodiy va savdo markazi sifatida ham mavqei yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Amir Temur davlatning rivojida savdoning ahamiyatini yaxshi tushunib, siyosiy va iqtisodiy masalalarni hal etishga harakat qilar edi. O'zaro urushlarga chek qo'yilishi va Markaziy hokimiyatning kuchayishi natijasida mamlakatning turli viloyatlari o'rtasidagi iqtisodiy alokalar rivojlanib bordi. Movarounnaxrning qishloq va shaharlaridan Samarkand bozoriga keltiriladigan va muayyan talablarga

<sup>7</sup> Bo'riev O. Amir Temur pirlari Toshkent, 1995. B.48.

<sup>8</sup> Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent, 2010. B. 146, 186.

javob beradigan mahsulotlarning bir qismi chet ellik savdogarlarga sotish va boshqa shaxarlarga jo'natish uchun mo'ljallab olib kelinar edi.

Keng tarmokli Buyuk Ipak yo'li Movarounnaxr shaharlarini Hindiston, Eron, Volga bo'yi, hozirgi Afg'oniston, Xitoy, Turkiya shaharlari bilan bog'lar edi. Kichik Osiyoda bo'lgan vaqtida Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan diplomatik yozishmalarida G'arb mamlakatlari bilan muntazam savdo aloqalari o'rnatish istagini bildirdi. Savdogarlarning diniy mansubligidan kat'i nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta'minlash ikki tomondan qo'yilgan muhim shartlardan biri edi.

Samarqandda o'tkazilgan yillik yarmarkalarga turli mamlakatlardan — «Xitoy, Hindiston, Totoriya va boshqa yerlardan» xilma-xil tovarlar keltirilgan. Movarounnahrning Xitoy bilan savdo-diplomatik alokalari kengayib borgan. Xitoy imperatorining temuriy hukmdorlarga yuborgan sovgalari ro'yxatida axrlining yuqori tabaqasi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan mollar, xususan, chinni buyumlar, ov qushlari, qog'ozning alohida navi va boshqalar mavjud edi.

Xullas, Sohibqiron bobomiz mamlakat obodonchiligiga xam juda katta e'tibor berdi.. Sohibqiron xarakati bilan Samarkandda dunyoning yirik shaxarlaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Xatto g'ariblarga ozik-ovkat beradigan g'aribxonalar, yulovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar xam qurilgan. Shaxar atrofi mustaxkam devorlar bilan o'ralib, Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgox, Suzangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Amir Temurning qarorgoxi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar xam aynan shu yerda quriladi. Movarounnahr dunyoning eng obod o'lkalaridan biriga, Samarqand esa uning yuragi, butun hududning ichki va tashqi savdosini boshqarib turuvchi markazga aylandi.